UDK 297.1 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a168**

TASAVVUFDA TARIQAT A'ZOLARINING JAMOADAN ALOHIDALANISHI (IJTIMOIY FALSAFIY TAHLIL)

ОТДЕЛЕНИЕ ЧЛЕНОВ ТАРИКАТА ОТ ОБЩЕСТВА В СУФИЗМЕ (СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ)

SEPARATION OF MEMBERS OF THE TARIKAT FROM SOCIETY IN SUFISM (A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS)

Samatov Xurshid O'lmasjonovich[1]

[1]Samatov Xurshid O'lmasjonovich –
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali gumanitar va ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya

Maqolada tasavvuf insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichida yangi ma'naviy zarurat, fikriy va hissiy izlanishlar ehtiyojiga javob sifatida paydo bo'lganligi va tasavvuf insonning ruhiy-axloqiy poklanishi, ilohiy muhabbat bilan yuksalib borishi haqidagi g'oyalari bilan haqiqat talabida yurgan odamlar qalbiga taskin berishi kabi munosabatlarga e'tibor qaratilgan. Ayni paytda, insonlarning to'xtovsiz ijodiy faoliyati, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ham tasavvufga o'ziga xos ta'sir o'tkazib, undagi sinkretiklik (omuxtalik) xususiyatini kuchaytirib, yangi tariqatlar, ta'limotlar, qarashlar silsilasini vujudga keltirganligi ko'rib chiqilgan.

Аннотация

В статье акцентируется внимание на том, что суфизм возник как ответ на потребность в новых духовных потребностях, интеллектуальных и эмоциональных исследованиях на определенном этапе развития человечества, и что суфизм утешает сердца людей, ищущих истину, своими представлениями о духовно-нравственное очищение человека и возникновение божественной любви. В то же время считалось, что непрекращающаяся творческая деятельность людей, социально-экономические изменения в обществе оказали уникальное воздействие на суфизм, усилили его синкретизм и породили ряд новых тарикатов, учений и воззрений.

Abstract

The article focuses on the fact that Sufism arose as a response to the need for new spiritual needs, intellectual and emotional research at a certain stage in the development of mankind, and that Sufism consoles the hearts of people seeking the truth with its ideas about the spiritual and moral purification of man and the emergence of divine love. At the same time, it was believed that the incessant creative activity of people, socio-economic changes in society had a unique impact on Sufism, strengthened its syncretism and gave rise to a number of new tarikats, teachings and views.

Kalit so'zlar: *tasavvuf, tariqat, jamiyat, shaxs, tarkidunyochilik, ibodat, islom, xalq bilan muloqot.*

Ключевые слова: *суфизм, тарикат, общество, личность, аскетизм, богослужение, ислам, общение с народом.*

Key words: *Sufism, tarikat, society, personality, asceticism, worship, Islam, communication with the people.*

KIRISH

Tasavvuf g'oyalari zamon va makon jihatidan teran va keng miqyosga ega bo'lib, uzoq asrlardan beri yashab kelmoqda. O'tgan davr mobaynida tasavvuf o'ziga xos bir ta'limot sifatida shakllandi va turli mavzular doirasida bahslashadigan hamda yakunida Allohga va uni tanishga olib boradigan g'oyalar tizimiga aylandi. Tasavvuf mavzulari ichida eng ko'p bahs-munozara qilingan ijobiy yoki salbiy yondashilgan mavzu bu xilvat, uzlat va anjumanning uzviyligi masalasi hisoblanadi. Qolaversa, "Sufiy xilvatda bo'lishi kerakmi yoki jamoada?" degan savolga ham tariqat pirlarining bir-biriga qarama-qarshi fikrlarini uchratamiz. Buni biz ba'zi tariqatlarda pirlarning o'z shogirdlarini xalq bilan muloqot qilishdan qaytarganida ko'rishimiz mumkin. Ularning nuqtai nazaricha, xalq bilan ko'p muloqotda bo'lish, ulardagi xislatlar insonga ta'sir qilib qolishi mumkinligidan ogohlantirgan. Shuningdek, xalqning diniy va dunyoviy savollariga javob berish, ular bilan muloqotga ko'p vaqt sarflash natijasida solikning asosiy vazifasi bo'lgan zikrga vaqt yetmay qolishi haqida fikrlar ham mavjud. Umuman olganda, tasavvufda xalq bilan muloqot zaruriymi, majburiymi yoki ixtiyoriy?! Ushbu savollarga javob izlash orqali tasavvufni ijtimoiy xususiyatlari yanada oydinlashadi. Tasavvuf yoki tariqat tanqid qilinayotgan bo'lsa, aynan qaysi g'oya nazarda

tutilayotganini aniqlab olish lozim. Tasavvufga bildirilayotgan aksariyat tanqidlarda tariqat pirlarining shariat qoidalaridan ortiqcha o‘ziga xos qoidalar joriy etganligi va sufiylarning boshqa musulmonlardan qanday farqlanishini izohlash kerakligi haqidagi fikrlar ko‘zga tashlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zamonaviy tasavvuf mohiyatini tadqiq etishga qaratilgan falsafiy va diniy adabiyotlarni tahlil etar ekanmiz, ayrim adabiyotlarda tasavvuf zikr va Alloh taologa sajda qilishni o‘z ichiga olgan, maxsus ajratilgan “takka”, “xonaqoh” deb ataladigan joylarda, shayxlar deb ataladigan ustozlar (murshid) rahbarligida, hirqa (maxsus kiyim)da o‘tkaziladigan marosimlar majmuidir degan ta’riflar uchraydi. Shuningdek, nay va boshqa maxsus asboblar yordamida raqslar ijro etish hamda “muroqaba” va “robita” deb nomlangan yashirin holatlarni ham o‘z ichiga oladi [1,5].

Tasavvuf haqidagi xilma-xil mulohazalar orasida islomdan avval ham tasavvufga o‘xshash yunon yo hind mistitsizmlari borligi qayd qilinadi. Ayrim tadqiqotchilarning bu falsafiy ta’limotlar bilan shug‘ullanib, ularning mistik xatti-harakatlarini islom dini bag‘rida shakllangan tasavvuf bilan bog‘lashayotganligini ko‘rish mumkin. Biroq, shuni ta’kidlash lozimki, har bir mistika o‘zi tegishli bo‘lgan dinning yoki falsafaning umumiy xususiyatini aks ettiradi. Masalan, hind mistitsizmi hind tafakkurining in’ikosidir, uning o‘ziga xosliklarini namoyon etadi. Islom tasavvufi esa, islomiyatning xususiyatlarini aks ettiradi. Shunday ekan, islomga zid tasavvufni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tasavvufning islom dini bilan bog‘lab tushunish va tushuntirish nafaqat uning diniy, falsafiy, balki ijtimoiy jihatlarini ham ochib beradi. Mashhur zamondoshimiz tasavvuf haqida bir qator kitoblar muallifi Mahmud As’ad Jo‘shon tasavufni aynan islom dini bilan bog‘liq jihatlari jamiyat va davlat uchun shuningdek, har bir mo‘min va musulmon uchun foydali ekanligini ta’kidlaydi [2,60].

Tasavvufda alohidalanish uning tarixiy jarayonlar bilan bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Tasavvuf tarixi dastlab ikki davrga bo‘linadi: birinchisi — zohidlik davri, ikkinchisi — oriflik va oshiqlik davri [3,14]. Bu davrga mos ravishda xalq bilan muloqot mavzusini ham nazariy va amaliy jihatdan shartli ravishda 3 bosqichga bo‘lib o‘rganish mumkin. Birinchi bosqichda, tasavvuf jamoalarning diniy, ijtimoiy sabablarga ko‘ra, ajralib chiqish davri bu zohidlik davri, ikkinchisi Alloh haqidagi muayyan bilimga ega bo‘lish oriflik davri, o‘zini va Yaratganni anglash davrida ilohiy bilimlar ta’sirida yuzaga keladigan Allohga oshiqlik davri. Buni ikkiga bo‘lish mumkin. Bunda yakka holda doimiy toat-ibodat qilib, insonlardan alohidalanish orqali Allohga muhabbat bog‘lash va Allohning bandalariga xizmat qilish orqali Uni muhabbatiga sazovor bo‘lish.

Sufiy jamoalarning yuzaga kelishi va ularda oddiy musulmonlardan farqlanib turuvchi sifatlarining paydo bo‘lishi zohidlik davridan boshlanganligini ko‘ramiz. Bu davrda tasavvufning keng qamrovli ijtimoiy hodisa sifatida shakllanib borishiga jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ham o‘ziga xos ta’sir o‘tkazdi. Dastlab, sufiy jamoalar tomonidan Ummaviy hukmdorlar va ularni yaqinlarining dunyoviy maishat va isrofgarchilikdan iborat hayot tarzi ilk islom davridagi musulmonning ijtimoiy va diniy ideallariga zid hodisa sifatida qaraldi. Ularning hukmronlik yillarida saroy hashamlari, dabdabali bezaklar, oltin-kumushga berilish, xazina to‘plash avj oldi. Ya’ni, diniy mashg‘ulotlar, Xudo yo‘lidagi toat-ibodat o‘rnini dunyoviy ishlar, dunyo moliga muhabbat egallay boshladi. Bu hol diniy amrlarni ado etishni har qanday dunyoviy ishlar, boyliklardan ustun qo‘ygan e’tiqodli kishilarning noroziligiga sabab bo‘ldi. Ular orasida hadis to‘plovchi muhaddislar, ilgaridan qashshoq bo‘lib, uy-joy, mol-mulkka e’tibor qilmagan sahobalar ham bor edi. Bularning bir qismi dinni himoya qilib, ochiq kurashga otlangan bo‘lsalar, ikkinchi qismi qanoat va zuhdni («zuhd» so‘zidan «zohid» so‘zi kelib chiqqan) asosiy maqsad qilib olib, saroy ahli va amaldorlar, boylar axloqiga qarshi norozilik belgisi sifatida tarkidunyochilik g‘oyasini targ‘ib etib, ijtimoiy faoliyatdan butunlay chetlashdilar va surunkali toat-ibodat bilan shug‘ullanishga berilib ketishdi.

Bundan tashqari, xalifalik hokimiyatiga nisbatan xorijiylar singari diniy – siyosiy guruhlarning paydo bo‘lishi, qo‘lda qurol bilan chiqqan shialarning bir qismi qurolli kurash yo‘li bilan “nopok” hukmdorlarni ag‘darib tashlashga intilishi jarayonlari amaldagi din hokimiyatga nisbatan asosli e’tirozlarni mavjudligini anglatar edi. Bunday holatda jamiyatning ayrim qatlam vakillari faol qarshilikni emas, balki nofaol qarshilik ko‘rsatish hamda inson Xudoning irodasiga to‘la bo‘ysunishi lozimligi haqidagi g‘oyalarni ilgari surishni afzal ko‘rdi. Garchi ularning e’tiqod masalasidagi namunali taqvodorligi dunyoviy va harbiy hukmdorlar uchun niqoblangan chaqiriq sifatida qabul qilingan bo‘lsa ham, ular xalifalik boshqaruviga oshkora qarshi chiqmagunlariga qadar xalifalik hukumati ularga yetarlicha sabr-toqat bilan munosabatda bo‘ldi.

Tasavvufshunos olim K.Rahimov jamiyatda tasavvufiy jamoalarining alohidalanishi ya'ni xalqdan ajralib chiqishning vujudga kelish sabablari, nazariy va amaliy jihatlarini bir necha faktorlar bilan asoslashga harakat qilgan [4,17]. Jumladan:

1. Diniy sabablar: tasavvuf islom dini doirasidagi ijtimoiy hodisa sifatida, birinchi navbatda, islom ta'limoti, jumladan, Qur'on oyatlari va hadislarga tayangan holda vujudga kelgan ta'limotdir. Tadqiqotchining aniqlashicha, Allohning barcha joyda hozir-u nozir ekanligi, uning o'z bandalariga yaqinligi hamda ularni eslashi va sevishi barobarida bandalari ham Uni eslashlari, sevishlari va Undan rozi rozi bo'lishga, shuningdek, nafsga qarshi kurashish orqali ezgu xislatlarga ega inson bo'lishga chorlashi to'g'risidagi g'oyalar, shuningdek, ko'plab oyat va hadislarni "o'zgacha" talqin etuvchilar taqvodor kishilardan ma'lum qismi islomning ilk davrlaridagi sufiylik harakatining vujudga kelishiga sabab bo'lgan [4,18]. Muhammad (s.a.v)ning ayrim safdoshlari Abu Dardo, Abu Zarr, Huzayfa ibn Yamon va boshqa sahobalarga zohidlik kayfiyati xos bo'lgan deb hisoblanadi. Ilk sufiylik an'analari namoyondalari bo'lgan zohidlarning o'ziga xos xususiyatlari Qur'on oyatlari mazmuni ustida mushohada qilish, kundalik hayotda bu ilohiy kitob va Muhammad (s.a.v) hadislari va ko'rsatmalariga qa'tiy rioya etish, muntazam nafl (qo'shimcha) namoz o'qish, bedorlik va ro'za tutish, har qanday dunyoviy hoyu havaslardan yuz o'girish, kundalik hayotda taqvoli bo'lish, xususan, ruxsat etilgan narsalar bilan man qilingan narsalarni qat'iy ajratish, o'zini taqdiri ilohiyga topshirish (tavakkul) kabilar bo'lgan. Shuningdek, faqirlikni ulug'lash, oxiratni o'ylash va tavba qilish kayfiyati, berganiga shukr qilish, azob uqubatlarga sabr-toqatlilikdan iborat edi [5,454].

2. Ijtimoiy-iqtisodiy sabablar: Payg'ambar vafotidan keyin arab xalifaligi tomonidan olib borilgan yurishlar natijasida ko'plab o'lkalarning fath etilishi bilan o'ljalar va soliqlardan tushgan daromadlarning ko'payishi, xalifalik boshqaruvidagi amaldorlarning bir qismini boyib ketishiga olib keldi. Bu esa, bir tomondan musulmonlar jamiyatida mol-dunyo va boylikka berilish kayfiyatining kuchayishiga, ikkinchi tomondan ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi tengsizlikka va ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashishiga sabab bo'ldi. Natijada, taqvodor kishilarning musulmonlarni mol-dunyoga berilishiga qarshi norozilik kayfiyatlari uchinchi xalifa Usmon (r.a) davridan boshlanib, ummaviylar xalifaligi davrida kuchayib ketdi [4,19]. Shuni ta'kidlash lozimki, zohid bo'lib yashovchilar payg'ambar davrida ham mavjud bo'lib, ularga nisbatan e'tirozlar bo'lsada, o'zlarini asosiy jamoadan alohidalashga intilar edi. Muoviya ibn Qurra (r.a.) dan rivoyat qilinadi: "Umar ibn Xattob ahli Yamandan bir guruh odamlarga yo'liqib qolib, "Sizlar kimsizlar?" deb so'radi. "Tavakkul qiluvchilarmiz", deyishdi. "Yo'q! Sizlar tekinxo'rlarsiz. Tavakkul qiluvchi oldin donni yerga sepib qo'yib, keyin Allohga tavakkul qiladi", dedi" [6,98].

Bu davrni tasavvufshunos olim N.Komilov quyidagicha tahlil qiladi: "...Xalifa Usmon (r.a) zamonida boylikka ruju qo'yish, qimmatbaho tuhfalar bilan qarindosh-urug'lar, yaqin do'st-birodarlarni siylash rasm bo'ladi. Ummaviylar xalifaligi davriga kelib esa saroy hashamlari, dabdabali bezaklar, oltin-kumushga berilish, xazina to'plash avj oldi. Ya'ni diniy mashg'ulotlar, Alloh yo'lidagi toat-ibodat o'rnini dunyoviy ishlar, dunyo moliga muhabbat egallay boshladi. Bu hol diniy amrlarni ado etishni har qanday dunyoviy ishlar, boyliklardann ustun qo'ygan e'tiqodlik kishilarning noroziligiga sabab bo'ldi" [3,9].

3. Ijtimoiy-siyosiy sabablar. Xalifalikda davlat boshqaruvi tartibini belgilash jarayonlaridagi ziddiyatlar, musulmonlar o'rtasida hokimiyat uchun kechgan qonli urushlar, ular natijasida hokimiyatga chiqqan ummaviylar, keyinroq abbosiylar sulolasining diniy ideallarga hamisha ham to'g'ri kelmaydigan siyosati, bir tomondan taqvodorlar nazdida qiyomat yaqinlashishining belgisi bo'lib ko'rinib, ularning bu dunyo lazzatlaridan voz kechib, toat-ibodatga berilishlariga, ikkinchi tomonidan hukmron tabaqalar zulmiga qarshi kurash foydasizligini anglab, go'shanishinlikka berilishlariga sabab bo'ldi [4,19]. Zero, islom aqidalari va g'oyalariga sodiq kishilar uchun hukmron tabaqalarning moddiy boylikdan ma'naviyatni ustun quyuvchi, ijtimoiy adolatni targ'ib qiluvchi hamda barchani tinchlik va totuvlikka chorlovchi islom ta'limotini o'z manfaatlariga moslab talqin etishlarini hazm qila olmas edi.

4. G'oyaviy-aqidaviy sabablar. Ilk xalifalar, xususan, to'rtinchi xalifa Ali ibn Abu Tolib (k.v) zamonidan boshlangan siyosiy, keyinchalik shu bilan bog'liq aqidaviy ixtiloflar islom dini ichida ortodoksal hisoblangan sunniylikdan tashqari, shialar, xorijiylar, qadariylar, jabariylar, murjiylar, mo'taziliylar, karromiylar, qarmatiylar va shu kabi boshqa ko'plab diniy-siyosiy, diniy-aqidaviy oqimlarning vujudga kelishiga hamda ular o'rtasida Alloh, payg'ambarlik, imon, kufr kabi sof diniy mavzulardan tortib hokimiyat va hukmronlik kabi siyosiy mavzulargacha bo'lgan masalalar borasida bahs-munozaralar va o'zaro kurashlarning avj olishiga sabab bo'ldi. Musulmonlar jamiyati

a’zolari orasida ixtilof va bo‘linish keltirib chiqaradigan bunday jarayonlar ham taqvodor kishilarning noroziligiga sabab bo‘lib, ularda go‘shanishlik va zohidlik kayfiyatini kuchaytirgan bo‘lishi mumkin [4,20].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shuni ta’kidlash lozimki, A.Knish va K.Rahimovlarning tasavvufiy jamoalarning alohidalanishi jarayonlariga oid tadqiqotlarida umumiylik kuzatiladi. Mazkur tadqiqotlarda musulmon zohidligining paydo bo‘lishi, Qur’on oyatlari va Payg‘ambar hadislariga asoslangan tavba-tazarru va o‘z-o‘zini tark etish jarayonlari, Madinadagi ilk musulmon jamoalariga xos kamtarona hayot tarzini targ‘ib etuvchi dindorlarning xalifalik iqtisodiy ravnaqining o‘sib borishiga qarshi reaktsiyasi sifatida baholash mumkinligi ta’kidlangan.

Umuman olganda, tasavvufda zohidlikning paydo bo‘lishi, ularni yashash sharoitlari xalqdan ajralib chiqishning amaliy ifodasi deb hisoblashiimiz mumkin. Biroq, tasavvufning ilk kurtaklari shakllanayotgan mazkur davrda xalq va zohidlar o‘rtasida chegara qo‘yilmagan edi. Mazkur davrda yuzaga kelgan ziddiyatli jarayonlarda yashagan zohidlarning ta’lim berishicha, chindan ham Xudodan qo‘rqadigan kishi gunoh va adolatsizliklarga to‘la dunyoviy hayotdan voz kechish orqali o‘zini xalos qilishga intilishi zarur edi. O‘zlarini zohidlarcha tarkidunyochiligining tashqi belgisi sifatida ayrimlari egnilariga dag‘al jundan tayyorlangan ko‘ylak kiyib yura boshlagan edilar.

Bu esa, to‘laqonli ularni jamiyatda oddiy avom xalqdan ajralganligini belgisi edi. Endi ular nafaqat hukumat balki, oddiy insonlar bilan muloqotga kirishishni istamadilar. Biroq, bu urf hali keng yoyilmagan edi. Bunday zohidlar xulq-atvorining “xristian” ildizlarini anglagan ayrim ilk musulmon arboblar jundan tayyorlangan mato kiyishni qoraladilar. Boshqalar bu amaliyotni boshqa bir sababga ko‘ra qoraladilar. Ular nazarida kambag‘allikni namoyish etish Xudo o‘zining e’tiqodli bandalarini hayot uchun yetarli vositalar bilan ta’minlay olmaganligidan dalolat beradigandek tuyuldi. Bunga o‘xshash noroziliklarga qaramasdan, jun mato kiyish Suriya va Iroqdagi taqvodor musulmonlar o‘rtasida keng yoyilgan odatga aylandi. Turli o‘lkalarda keng avj olgan jun mato kiyish, guruhlanish alohida ajralib turishlari uchun har xil nomlarda ataladigan bo‘ldi.

Xuroson (Sharqiy Eron) va Movarounnahr (Markaziy Osiyo)da sufiy-mutafakkirlar “donishmandlar” (hukamo, birlikda hakim) yoki “Xudoni bilganlar”, ya’ni gnostiklar “orifun” (birligi orif) sifatida ma’lum va mashhur edilar. Amaliyotchi sufiylar xalifalikning Sharqiy o‘lkalarida, shuningdek, Iroq va Suriyada “kambag‘allar” (arabcha “fuqaro”, birlikda “faqir”, forscha, darvesh) yoki “zohidlar” deb atalardi. Xalifalik Sharqida zohidlik va tarkidunyochilik qator mahalliy diniy harakat vakillari tomonidan targ‘ib qilindi. Ulardan eng asosiylari karromiya (Xuroson va Movarounnahr) va malomatiya (Xuroson, Nishopur) edi [7,21].

Ushbu jarayon tasavvuf tariqatlarining dastlabki shakllanishi davri bo‘lib, unda ayrim tariqatlar tarkidunyochilik qilishni o‘zlariga kasb qilishib, jamiyatdan ayri holda yashash tarziga o‘ta boshlagan. Bu esa, keyinchalik butunlay “sirli” jamoaga aylanib, oddiy avom xalqdan farqlanishni maqsad qilganligi ma’lum edi. Tariqatlardagi maxsus hayot tarzi boshqalar uchun “sirli” bo‘lib ko‘ringan. Shuningdek, maxsus kiyim kiyishi ularni to‘la jamiyatdan “izolyatsiya” (alohida “xos” shaxslar uchun) qilishiga olib keldi. Bunday holatlar tasavvufga nisbatan umumiy tanqidiy yondashuvni shakllantirdi.

Ikkinchi yo‘nalish esa, ularda ham taqvodor bo‘lishga oid talablar ishlab chiqilgan, biroq xalqdan ajralmagan holda Xudoga itoat qilishi, odamlardan ajralib turadigan biror bir ishga qo‘l urmadi. Chunki, ularning nazarida taqvodorlik oshkora emas, balki qalbda “xufiyona” tarzda bo‘lishligi, oddiy avom xalqni e’tiborini tortadigan kiyimlar, ibodatlarni tark etishgan. Bu “xilvat dar anjuman” shioriga mos bo‘lib, insonlarni diqqatini jalb etadigan har qanday hatti-harakatlar riyokorlikka olib kelishi mumkinligiga asoslangan. Riyo esa shariatga ham tariqat qoidalariga ham to‘g‘ri kelmaydi. Shu bois, tasavvuf tariqatlari xalqdan ajralmagan tariqatlar va tarkidunyoga berilgan tariqatlar toifasiga bo‘lindi. Shu o‘rinda ta’kidlamoqchimizki, dastlabki zohidlarning dunyoga noroziligi ramzi sifatida paydo bo‘lgan tarkidunyochilik tushunchasi ayrim tariqatlarda mutassibona yondashuvgacha yetib bordi. Bu orqali go‘yoki ular o‘zini poklash va ko‘p ibodat bilan mashg‘ul bo‘lish imkoniga ega bo‘lar edi.

Mazkur davrdagi zohidlarning xalqdan alohidalashuv jarayonlariga ishq mavzusi ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Allohga bo‘lgan muhabbat zohidlarga turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘la boshladi. Muhabbat tushunchasi aniq shakl yoki obrazga ega bo‘lmaganligi sababli, u oshiqning harakteri orqali hatti-harakatlarida kuzatildi. Ayrim zohidlar bunda ishqni oshkora namoyon etib, o‘zini haqiqiy oshiq ekanligini isbotlash uchun xilvatxonalarda yashadi va oddiy xalqdan farq qiluvchi

kiyimlar kiydi, darveshlik qilib ko‘chalarda yurdi. Bu oddiy xalq nazarida oshiq qalandar ko‘rinishda insonlar qatoridan chiqib bo‘lgan edi. Ikkinchi toifa ishqni pinhona tutdi va Allohga bo‘lgan muhabbatini qalbida sir saqladi. Xalqdan maxsus kiyimlarda o‘ranib ajralib chiqmadi, xilvatxonalarda emas, odamlar bilan birga yashadi. Bu orqali jamoadan farq qiluvchi sifatlarni o‘zida shakllantirmadi. Shuning uchun, ularni ko‘pincha, oddiy insonlardan mutlaqo ajratib bo‘lmas edi. Ular Allohga bo‘lgan muhabbatini Uning bandalariga xizmat qilish bilan amalga oshirishi mumkinligiga ishondilar.

Mazkur davrda ko‘pchilik zohidlari shaxsiy taqvoga, axloqiy poklikka, Xudodan qo‘rqishga va shariatga amal qat’iy amal qilishga alohida ahamiyat berdi. Sufiylik harakatining jarchilari deyish mumkin bo‘lgan bu zohidlar ahd qilish, mo‘minlik, qo‘shimcha zohidlik amallarini bajarish, uzoq tungi bedorlik, Qur’on matni ustida tadabbur qilish, shuningdek, Allohga o‘zini fikran va ruhan to‘la bag‘ishlash orqali Alloh bilan botiniy yaqinlikka erishishga intilgan. Ular Allohga yaqinlashishga intilar ekanlar, Qur’on oyatlaridan ilhom oldilar. Ilk musulmon zohidlari va sufiylari Payg‘ambar to‘g‘risidagi hadislarning ma’nosi ustida fikr yuritdilar, bu hadislar Xudoning ko‘zga ko‘rinmaydigan mavjudligini ta’kidlar edilar.

Qur’on oyatlari va hadislardan ruhlangan ilk sufiylar ilohiy Ma’shuqaga bo‘lgan o‘zlarining ishqiy intilishlarini doston va she’riy misralarda ifoda eta boshladilar. Ilk sufiylarning ta’limot va qarashlarida Xudoga yaqinlikni his etish ko‘pincha fikr yoki xatti-harakatlarda kichik xatoga yo‘l qo‘yish yoki hatto qisqa muddat g‘aflatda qolish (ilohiy mehr-muravvatni unutish)dan qattiq dahshatga tushish holatlari yorqin ifodalandi.

XULOSA

Shuni ta’kidlash lozimki, A.Knish va K.Rahimovlarning tasavvufiy jamoalarning alohidalanishi jarayonlariga oid tadqiqotlarida umumiylik kuzatiladi. Mazkur tadqiqotlarda musulmon zohidligining paydo bo‘lishi, Qur’on oyatlari va Payg‘ambar hadislariga asoslangan tavba-tazarru va o‘z-o‘zini tark etish jarayonlari, Madinadagi ilk musulmon jamoalariga xos kamtarona hayot tarzini targ‘ib etuvchi dindorlarning xalifalik iqtisodiy ravnaqining o‘sib borishiga qarshi reaktsiyasi sifatida baholash mumkinligi ta’kidlangan.

Umuman olganda, tasavvufda zohidlikning paydo bo‘lishi, ularni yashash sharoitlari xalqdan ajralib chiqishning amaliy ifodasi deb hisoblashimiz mumkin. Biroq, tasavvufning ilk kurtaklari shakllanayotgan mazkur davrda xalq va zohidlar o‘rtasida chegara qo‘yilmagan edi. Mazkur davrda yuzaga kelgan ziddiyatli jarayonlarda yashagan zohidlarning ta’lim berishicha, chindan ham Xudodan qo‘rqadigan kishi gunoh va adolatsizliklarga to‘la dunyoviy hayotdan voz kechish orqali o‘zini xalos qilishga intilishi zarur edi. O‘zlarini zohidlarcha tarkidunyochiligining tashqi belgisi sifatida ayrimlari egnilariga dag‘al jundan tayyorlangan ko‘ylak kiyib yura boshlagan edilar.

Bu esa, to‘laqonli ularni jamiyatda oddiy avom xalqdan ajralganligini belgisi edi. Endi ular nafaqat hukumat balki, oddiy insonlar bilan muloqotga kirishishni istamadilar. Biroq, bu urf hali keng yoyilmagan edi. Bunday zohidlar xulq-atvorining “xristian” ildizlarini anglagan ayrim ilk musulmon arboblar jundan tayyorlangan mato kiyishni qoraladilar. Boshqalar bu amaliyotni boshqa bir sababga ko‘ra qoraladilar. Ular nazarida kambag‘allikni namoyish etish Xudo o‘zining e’tiqodli bandalarini hayot uchun yetarli vositalar bilan ta’minlay olmaganligidan dalolat beradigandek tuyuldi. Bunga o‘xshash noroziliklarga qaramasdan, jun mato kiyish Suriya va Iroqdagi taqvodor musulmonlar o‘rtasida keng yoyilgan odatga aylandi. Turli o‘lkalarda keng avj olgan jun mato kiyish, guruhlanish alohida ajralib turishlari uchun har xil nomlarda ataladigan bo‘ldi.

Xuroson (Sharqiy Eron) va Movarounnahr (Markaziy Osiyo)da sufiy-mutafakkirlar “donishmandlar” (hukamo, birlikda hakim) yoki “Xudoni bilganlar”, ya’ni gnostiklar “orifun” (birligi orif) sifatida ma’lum va mashhur edilar. Amaliyotchi sufiylar xalifalikning Sharqiy o‘lkalarida, shuningdek, Iroq va Suriyada “kambag‘allar” (arabcha “fuqaro”, birlikda “faqir”, forscha, darvesh) yoki “zohidlar” deb atalardi. Xalifalik Sharqida zohidlik va tarkidunyochilik qator mahalliy diniy harakat vakillari tomonidan targ‘ib qilindi. Ulardan eng asosiylari karromiya (Xuroson va Movarounnahr) va malomatiya (Xuroson, Nishopur) edi [7,21].

Ushbu jarayon tasavvuf tariqatlarining dastlabki shakllanishi davri bo‘lib, unda ayrim tariqatlar tarkidunyochilik qilishni o‘zlariga kasb qilishib, jamiyatdan ayri holda yashash tarziga o‘ta boshlagan. Bu esa, keyinchalik butunlay “sirli” jamoaga aylanib, oddiy avom halqdan farqlanishni maqsad qilganligi ma’lum edi. Tariqatlardagi maxsus hayot tarzi boshqalar uchun “sirli” bo‘lib ko‘ringan. Shuningdek, maxsus kiyim kiyishi ularni to‘la jamiyatdan “izolyatsiya” (alohida “xos”

shaxslar uchun) qilishiga olib keldi. Bunday holatlar tasavvufga nisbatan umumiy tanqidiy yondashuvni shakllantirdi.

Ikkinchi yo‘nalish esa, ularda ham taqvodor bo‘lishga oid talablar ishlab chiqilgan, biroq xalqdan ajralmagan holda Xudoga itoat qilishi, odamlardan ajralib turadigan biror bir ishga qo‘l urmadi. Chunki, ularning nazarida taqvodorlik oshkora emas, balki qalbda “xufiyona” tarzda bo‘lishligi, oddiy avom xalqni e’tiborini tortadigan kiyimlar, ibodatlarni tark etishgan. Bu “xilvat dar anjuman” shioriga mos bo‘lib, insonlarni diqqatini jalb etadigan har qanday xatti-harakatlar riyokorlikka olib kelishi mumkinligiga asoslangan. Riyo esa shariatga ham tariqat qoidalariga ham to‘g‘ri kelmaydi. Shu bois, tasavvuf tariqatlari xalqdan ajralmagan tariqatlar va tarkidunyoga berilgan tariqatlar toifasiga bo‘lindi. Shu o‘rinda ta’kidlamoqchimizki, dastlabki zohidlarning dunyoga noroziligi ramzi sifatida paydo bo‘lgan tarkidunyochilik tushunchasi ayrim tariqatlarda mutassibona yondashuvgacha yetib bordi. Bu orqali go‘yoki ular o‘zini poklash va ko‘p ibodat bilan mashg‘ul bo‘lish imkoniga ega bo‘lar edi.

Mazkur davrdagi zohidlarning xalqdan alohidalashuv jarayonlariga ishq mavzusi ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Allohga bo‘lgan muhabbat zohidlarga turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘la boshladi. Muhabbat tushunchasi aniq shakl yoki obrazga ega bo‘lmaganligi sababli, u oshiqning harakteri orqali xatti-harakatlarida kuzatildi. Ayrim zohidlar bunda ishqni oshkora namoyon etib, o‘zini haqiqiy oshiq ekanligini isbotlash uchun xilvatxonalarda yashadi va oddiy xalqdan farq qiluvchi kiyimlar kiydi, darveshlik qilib ko‘chalarda yurdi. Bu oddiy xalq nazarida oshiq qalandar ko‘rinishda insonlar qatoridan chiqib bo‘lgan edi. Ikkinchi toifa ishqni pinhona tutdi va Allohga bo‘lgan muhabbatini qalbida sir saqladi. Xalqdan maxsus kiyimlarda o‘ranib ajralib chiqmadi, xilvatxonalarda emas, odamlar bilan birga yashadi. Bu orqali jamoadan farq qiluvchi sifatlarni o‘zida shakllantirmadi. Shuning uchun ularni ko‘pincha, oddiy insonlardan mutlaqo ajratib bo‘lmas edi. Ular Allohga bo‘lgan muhabbatini Uning bandalariga xizmat qilish bilan amalga oshirishi mumkinligiga ishondilar.

Mazkur davrda ko‘pchilik zohidlari shaxsiy taqvoga, axloqiy poklikka, Xudodan qo‘rqishga va shariatga amal qat’iy amal qilishga alohida ahamiyat berdi. Sufiylik harakatining jarchilari deyish mumkin bo‘lgan bu zohidlar ahd qilish, mo‘minlik, qo‘shimcha zohidlik amallarini bajarish, uzoq tungi bedorlik, Qur’on matni ustida tadabbur qilish, shuningdek, Allohga o‘zini fikran va ruhan to‘la bag‘ishlash orqali Alloh bilan botiniy yaqinlikka erishishga intilgan. Ular Allohga yaqinlashishga intilar ekanlar, Qur’on oyatlaridan ilhom oldilar. Ilk musulmon zohidlari va sufiylari Payg‘ambar to‘g‘risidagi hadislarning ma’nosi ustida fikr yuritdilar, bu hadislar Xudoning ko‘zga ko‘rinmaydigan mavjudligini ta’kidlar edilar.

Qur’on oyatlari va hadislardan ruhlangan ilk sufiylar ilohiy Ma’shuqaga bo‘lgan o‘zlarining ishqiy intilishlarini doston va she’riy misralarda ifoda eta boshladilar. Ilk sufiylarning ta’limot va qarashlarida Xudoga yaqinlikni his etish ko‘pincha fikr yoki xatti-harakatlarda kichik xatoga yo‘l qo‘yish yoki hatto qisqa muddat g‘aflatda qolish (ilohiy mehr-muravvatni unutish)dan qattiq dahshatga tushish holatlari yorqin ifodalandi.

Tasavvuf jamoalarining xalq bilan muloqot uchun yaqinlashishi Hasan Basriyning zamondoshlariga nisbatan qardoshlik muhabbati (uhuvva) va uning altruizmi (isor) keyingi davr sufiylari tomonidan Xudoga samimiy xizmat qilishga intiluvchilarning olijanob fazilati sifatida qabul qilindi. Ular ma’naviy “jasurlik”(futuvva) to‘g‘risidagi ta’limot uchun asos bo‘ldi va keyingi davrlarda ko‘plab sufiy jamoalarning muhim belgisi bo‘lib qoldi. Hasan Basriyning nomi juda ko‘plab tasavvufiy tariqatlar silsilasida qayd etilganligi va uning so‘zlari ilohiy hikmatlar to‘plamlarida keltirilishiga ajablanmasa ham bo‘ladi. Basrada ham, uning tashqarisida ham Hasan Basriyning zohidlarcha xudojo‘yligi ta’siri sezilib turgan [7,29].

Umuman olganda, tasavvufning bu davrida shakllanib kelayotgan g‘oyalarda sufiylarning taqvodorligi odamlar orasida qanday ta’sirga egaligi, ularga ibrat va hikmat nazari bilan qarashlari bilan bog‘liq masalalar aks etdi. Tasavvufning tarixiy ildizlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda xalq bilan muloqot masalasining nazariy va amaliy ifodasi zohidlik davridagi so‘fiylarning yashash tarzi va ularning ta’limotlarida hamda turli vaziyatlarda yashagan sufiylarni faoliyatlarida namoyon bo‘ldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Хасан Камиль Йылмаз. Тасаввуф и тарикаты. Перевод с турецкого. М.: ООО «Издательская группа «САД», 2007. – 300 стр. 1-е издание. С.5.

2. Маҳмуд Асъад Жўшон.Сиддиқлар йўли (тасаввуф ва нафс тарбияси). / Таржимон: Нодирхон Ҳасан; - Т. “MATBAACHI” нашриёти,2022.- Б.60.

3. Комилов Н. Тасаввуф. Т. “Movarounnahr” нашриёти, 2009. Б.14.

4. Раҳимов К. Моваройннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар). Т. “Akademnashr”, 2020. Б.17.

5. Ислом энциклопедияси: А-Ҳ/Шайх Абдулазиз Мансур таҳрири остида.–Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,2017.– Б.454.

6. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Алий ибн ҳасан Ҳаким Термизий. Сарахс аҳли сўраган масалалар. Касбнинг баёни. Таржимон Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Т.: “Hilol-Nashr” нашриёти,2019. Б.98.

7. Книш Александр.Мусулмон тасаввуфи/ Таржимон Қодирқул Рўзматзода.– Тошкент: “Фан зиёси” нашриёти,2022.– Б.21.

8. Сафаров А. И., Хаккулов Н. К. Свойственные качества совершенному человеку в суфизме //Современная наука как социально-политический фактор развития государства. – 2019. – С. 48-50.

9. Муминова З. О. Атрибутивные свойства духовного мира человека //Universum: общественные науки. – 2014. – №. 3 (4). – С. 4.

10. Nasirdinovich U. F., Rakhmatullaevna U. L. History and contemporary social and moral approach to rationalism //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 1796-1801.

11. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – С. 175-179.

12. Mardonov R. Philosophical aspects of modern education //Conferencea. – 2021. – С. 15-17.

13. Ганиев К., Ризаев И. И. Вестник Прикамского социального института //Вестник Прикамского социального института Учредители: Прикамский социальный институт. – №. 2. – С. 156-162.

14. Muhammadiev, Kh. Potentiality and virtuality in the philosophy of modern times / Kh. Muhammadiev // . – 2022. – No. 3(107). – P. 1000-1004.